

OLIV TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li

“Alfraganus University” nodavlat oliy ta'lim tashkiloti,
o'quv bo'limi uslubchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda akademik avtonomiyani kuchaytirish, natijaviylikka asoslangan moliyalashtirish modeli, innovatsion boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, ilmiy salohiyatni rag'batlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarurligi asoslab berilgan. Mazkur mexanizmlar uyg'un holda qo'llanilganda oliy ta'lim sifatini oshirish, professor-o'qituvchilar samaradorligini kuchaytirish va ilmiy natijadorlikni yaxshilashga imkon yaratadi. Tahlil natijalari oliy ta'lim tizimida barqaror boshqaruv va raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: akademik faoliyat, boshqaruv mexanizmlari, moliyalashtirish, innovatsiyalar, KPI, oliy ta'lim, ilmiy salohiyat, xalqaro hamkorlik

Аннотация

В статье рассмотрены вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов управления академической деятельностью в вузах Узбекистана. Обоснована необходимость укрепления академической автономии, внедрения модели финансирования на основе результативности, применения инновационных управленческих технологий, стимулирования научного потенциала и расширения международного сотрудничества. Комплексная реализация этих направлений способствует повышению качества образования, эффективности преподавательского состава и научной результативности. Полученные результаты могут служить практической основой для обеспечения устойчивого управления и конкурентоспособности высшего образования.

Ключевые слова: академическая деятельность, механизмы управления, финансирование, инновации, KPI, высшее образование, научный потенциал, международное сотрудничество

Abstract

This article analyzes the improvement of organizational and economic mechanisms for managing academic activities in higher education institutions of Uzbekistan. The study substantiates the need to strengthen academic autonomy, introduce performance-based funding models, implement innovative management technologies, promote scientific potential, and expand international cooperation. The integrated application of these mechanisms enhances education quality, academic staff efficiency, and research productivity. The findings provide a practical basis for ensuring sustainable management and competitiveness of the higher education system.

Keywords: academic activity, management mechanisms, funding, innovation, KPI, higher education, scientific potential, international cooperation

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lim sifatini oshirish, uni xalqaro andozalar darajasiga ko'tarish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish kabi vazifalar belgilangan. Bu jarayonda oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta'lim va ilmiy faoliyat sifatini oshirish, samaradorlikni ta'minlash mumkin.

Avvalambor akademik faoliyat tushunchasi va uni boshqarish zarurati haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Akademik faoliyat — bu professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar va talabalar tomonidan amalga oshiriladigan ta'lim, ilmiy-tadqiqot, innovatsion va tarbiyaviy faoliyatlar majmuidir. Uni samarali boshqarish uchun zamonaviy menejment uslublari, iqtisodiy tahlil vositalari va tashkilotni strategik rejalashtirish usullaridan foydalanish talab etiladi.

Hozirgi kunda oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarishda qator muammolar mavjud:

- boshqaruvda markazlashganlikning ustunligi;
- moliyalashtirish mexanizmlarining samarasizligi;
- o'qituvchilar mehnatiga haq to'lashda adolatli tizim yo'qligi ilmiy faoliyatni rag'batlantirishning yetishmasligi.

Ko'pgina qarorlar markaziy darajada qabul qilinadi, bu esa tashabbus va innovatsion yondashuvlarni cheklaydi.

Akademik faoliyat ko'rsatkichlari bilan bog'liq moliyaviy rag'batlantirish tizimi yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Oliygozlarda professor-o'qituvchilarning natijaviyligi (tadqiqotlar soni, ilmiy maqolalar, grantlar) hisobga olinmaydigan holatlar mavjud.

Akademik faoliyatni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari deganda, tashkiliy mexanizmlar va iqtisodiy mexanizmlar tushuniladi.

Tashkiliy mexanizmlarda idoraviy tuzilma, vakolatlar taqsimoti, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, ichki nazorat va hisobot tizimlaridan iborat bo'ladigan bo'lsa, iqtisodiy mexanizmlarga resurslarni taqsimlash, moliyaviy rag'batlantirish, byudjet va grant mablag'larini samarali boshqarish, ish samaradorligiga bog'langan mehnat haqi tizimidan iborat bo'ladi.

Akademik faoliyatni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif etilgan yo'nalishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy, mustaqil va natijaviy faoliyat yurituvchi tashkilotlarga aylantirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

1-jadval
**OTMlarda akademik faoliyatni samarali boshqarish uchun o'zaro bog'liq
va zarur mexanizmlar¹**

№	Yo'nalish	Mazmun	Kutilgan natija
1	Akademik avtonomiyani kuchaytirish	Oliy ta'lim muassasalariga ta'lim mazmuni, ilmiy yo'nalish va byudjetni mustaqil belgilash huquqini berish	Universitetlar mustaqilligi ortib, innovatsion yondashuv va raqobatbardoshlik ta'minlanadi
2	Natijaviylikka asoslangan moliyaviy model	KPI, maqola soni, grantlar va patentlarga qarab moliyaviy rag'bat tizimini joriy etish	Ilmiy va ta'limiy faoliyat samaradorligi oshadi, kadrlar ishga motivatsiyalanadi
3	Innovatsion boshqaruv texnologiyalari	Raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan boshqaruv, elektron hisobot va KPI monitoring tizimlari	Boshqaruv samaradorligi, shaffoflik va tezkor qaror qabul qilish imkoni yaratiladi
4	Ilmiy salohiyatni rag'batlantirish	Moddiy va nomoddiy rag'batlar: mukofotlar, stajirovkalar, imtiyozlar va boshqalar	Ilmiy izlanishlarga qiziqish ortib, kadrlar salohiyati saqlanadi va rivojlanadi
5	Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish	Xalqaro loyihalar, reytinglar, tajriba almashinuvi va standartlarni joriy etish	Akademik faoliyat xalqaro talablarga moslashadi, reytingdagi o'rni yaxshilanadi

1-jadvalda keltirilgan beshta yo'nalish akademik faoliyatni samarali boshqarish uchun o'zaro bog'liq va zarur mexanizmlar hisoblanadi. Akademik avtonomiya universitetlarga mustaqil qaror qabul qilish imkonini berib, innovatsion yondashuvlarni rag'batlantiradi. Natijaviylikka asoslangan moliyaviy model esa ta'lim va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion boshqaruv texnologiyalari boshqaruvni raqamlashtirish orqali shaffoflik va tezkorlikni ta'minlaydi. Ilmiy salohiyatni rag'batlantirish professor-o'qituvchilarni faol tadqiqotchilikka undasa, xalqaro hamkorlik akademik faoliyatni global talablarga moslashtiradi. Bu yo'nalishlar kompleks ravishda amalga oshirilganda, oliy ta'lim sifatini oshirish va uni jahon standartlari darajasiga olib chiqish mumkin.

Akademik avtonomiyani kuchaytirish orqali har bir universitet o'z ta'lim mazmuni, ilmiy tadqiqotlar yo'nalishi va moliyaviy siyosatini mustaqil belgilay olishi, bu esa raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijaviylikka asoslangan moliyaviy modelni joriy etish esa professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning samaradorligini oshirishga, sifatli ilmiy natijalarga erishishga rag'batlantiradi. Buning uchun KPI va boshqa baholash mezonlari asosida moliyaviy resurslarni taqsimlash tizimi joriy etilishi zarur.

Innovatsion boshqaruv texnologiyalarining joriy etilishi, xususan raqamlashtirish vositalari, avtomatlashtirilgan platformalar va monitoring dasturlari akademik faoliyatni tahlil qilish, boshqarish va shaffoflikni ta'minlash imkonini beradi. Ilmiy salohiyatni rag'batlantirish esa ta'lim muassasalarida kadrlar salohiyatini saqlab qolish, ularni ilmiy izlanishlarga jalb etish va tajriba almashinuvi kuchaytirish uchun

¹¹ Muallif ishlanmasi

muhim mexanizm hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro reytinglar va standartlarga moslashish, chet el universitetlari va tashkilotlari bilan hamkorlikda loyihalar amalga oshirish orqali akademik faoliyatning sifatini yanada oshirish mumkin. Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur yo'nalishlar zamonaviy ta'lim boshqaruviga o'tish, ilmiy natijadorlikni oshirish va global ta'lim makonida munosib o'rin egallash uchun zarur va o'rinli islohotlar hisoblanadi.

Tezisdagi quyidagi yechimlar taklif etilgan:

- akademik avtonomiyani kengaytirish;
- KPI (natijaviylik ko'rsatkichi) asosida moliyalashtirish;
- innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etish;
- ilmiy salohiyatni rag'batlantirish;
- xalqaro tajriba va hamkorlikni kuchaytirish.

Oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirish — bu nafaqat ta'lim sifatini, balki mamlakatning umumiy intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, professor-o'qituvchilar mehnatini munosib rag'batlantirish va talabalarga sifatli ta'lim berish imkoni yaratiladi. Shu boisdan, ushbu yo'nalishdagi islohotlar davomli va tizimli ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PQ-5847-sonli qarori “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”. <https://lex.uz/docs/4545884>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “2020-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning milliy strategiyasi” doirasida ta'lim sohasiga qaratilgan islohotlar” Farmoni. <https://lex.uz/docs/5085999>
3. Vahobov A.V., Aripov Sh.Sh. “Iqtisodiyotda boshqaruv nazariyasi”, Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2021.
4. Tojiboyev Sh.T. “Oliy ta'lim tizimida boshqaruvni takomillashtirish masalalari”, Toshkent, 2020.
5. Alimov Sh.Sh. “Oliy ta'limda menejment va ta'lim sifatini boshqarish”, Toshkent: “Fan”, 2022.
6. <https://doi.org/10.1787/9b91c231-en>
7. Altbach, P. G., Reisberg, L., & Rumbley, L. E. (2009). *Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution*. UNESCO.
8. Salmi, J. *The Challenge of Establishing World-Class Universities*. (2009). The World Bank.